


IX. TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi 1 230,9 mln AQSH dollari tashkil etgan, jumladan 491,7 mln AQSH dollarini-eksport, 739,2 mln AQSH dollarini import tashkil etdi. Tashqi savdo aylanmasining saldosi -247,4 mln AQSH dollarini tashkil qildi.

Tashqi savdo aylanmasi dinamikasi
(mln AQSH dollari)




So'ngi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishni, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi. Jumladan, xom ashyo eksportidan, qo'shilgan qiymati yuqori hamda sarmoya talab tovarlar eksportiga yo'naltirilgan tashqi savdo amalga oshirilmoqda.

2025- yil yanvar-sentabr oylari viloyat tashqi savdo aylanmasida

MDH va boshqa davlatlarning ulushi

(mln AQSH dollar va foizda)



2024- yil yanvar-sentabr



■ MDH davlatlar ■ Boshqa davlatlar

2025- yil yanvar-sentabr



■ MDH davlatlar ■ Boshqa davlatlar

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatda amalga oshirilgan tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 127,6 % ga, MDH davlatlari 117,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, boshqa davlatlar 138,6 % ga ko'paygani kuzatildi.

Jumladan, jami eksport aylanmasi 111,6 % ni va shundan MDH davlatlari 109,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, boshqa davlatlarga 121,8 % ni tashkil etdi.


Jami import aylanmasi 141,0 % ga ko'paygan bo'lib, undan MDH davlatlari 136,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, boshqa davlatlar 142,6 % ga ko'paygan.

MDH va boshqa davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi (mln AQSH dollari)

	yanvar-sentabr		O'sish sur'ati, % da
	2024- yil	2025- yil	
Tashqi savdo aylanmasi	964,9	1 230,9	127,6
<i>shu jumladan:</i>			
MDH davlatlari	494,6	578,9	117,0
Boshqa davlatlar	470,3	652,0	138,6
Eksport	440,7	491,7	111,6
<i>shu jumladan:</i>			
MDH davlatlari	350,9	382,4	109,0
Boshqa davlatlar	89,8	109,3	121,8
Import	542,2	739,2	141,0
<i>shu jumladan:</i>			
MDH davlatlari	143,7	196,5	136,7
Boshqa davlatlar	380,5	542,7	142,6

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo'nalishi bo'yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi oziq-ovqat mahsulotlariga to'g'ri kelmoqda, keyingi o'rinlarda eksport hajmi bo'yicha asosan yengil sanoat tovarlari, qora va rangli metallar, mashina va asbob-uskunalar va kimyo mahsulotlariga to'g'ri kelmoqda.

Viloyatdagi eksport-import tarkibi

	Umumiy hajm <i>mln AQSH dollar</i>		2024- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan % da
	2024- yil yanvar- sentabr	2025- yil yanvar-sentabr	
Eksport tarkibi	440,7	491,7	111,6
Oziq-ovqat va tirik hayvonlar	61,4	106,1	172,8
Ichimliklar va tamaki	1,8	1,7	95,6
Xom ashyo yoqilg'idan tashqari nooziq-ovqat hisoblanadi	7,5	4,4	58,0
Mineral yoqilg'i, moylash moylari va shunga o'xshash materiallar	3,6	6,2	173,0
Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar	5,2	5,4	102,9
Sanoat mahsulotlari	204,4	220,1	107,7
Mashinalar va transport uskunalari	46,1	12,4	26,9
Turli xil tayyor mahsulotlar	98,4	120,2	122,1
Xizmatlar	4,1	5,0	122,5
Boshqalar	8,0	9,3	116,5
Import tarkibi	524,2	739,2	141,0
Oziq-ovqat va tirik hayvonlar	106,8	207,0	193,8
Xom ashyo yoqilg'idan tashqari nooziq-ovqat hisoblanadi	33,7	49,5	147,2
Mineral yoqilg'i, moylash moylari va shunga o'xshash materiallar	7,8	17,0	2,2 m.
Hayvonlar va o'simlik moylari, yog'lar va mumlar	5,8	11,6	2,0 m.
Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar	59,1	47,9	81,1
Sanoat mahsulotlari	112,8	156,9	139,0
Mashinalar va transport uskunalari	162,8	195,0	119,8
Turli xil tayyor mahsulotlar	13,3	13,4	101,1
Boshqalar	19,3	39,3	2,0 m.



Namangan viloyatining 2025-yil yanvar-sentabr oylarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati

2025- yil yanvar-sentabr oylarida eksport qilingan mahsulotlar va xizmatlar tarkibi bo'yicha tahlil qilinganda, (2024- yilning tegishli davriga nisbatan), Mashinalar va transport uskunalari -73,1 % kamaygani kuzatildi.

2025-yil yanvar-sentabr oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasi yuqori ulushga ega davlatlar

(mln AQSH dollari)

Davlatlar nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import
Rossiya Federatsiyasi	396,2	315,2	81,0
Xitoy	319,5	15,5	304,0
Turkiya	63,8	20,5	43,3
Qozog'iston	76,4	23,9	52,6
Hindiston	80,5	0,6	79,9
Qirg'iziston	34,8	14,3	20,6
Germaniya	37,6	14,0	23,6
Belarus	33,1	5,6	27,5
Koreya Respublikasi	15,6	0,3	15,2
Pokiston	20,4	18,3	2,1
Indoneziya	11,5	0,0	11,5
Polsha	6,6	4,6	2,0
Tojikiston	15,9	10,0	5,9
Eron	11,7	7,8	3,9
Afg'oniston	8,9	8,6	0,3
Italiya	9,0	0,7	8,3
Turkmaniston	10,4	5,3	5,2
Malayziya	10,6	0,0	10,6
Ukraina	7,1	3,8	3,4
AQSH	3,7	3,2	0,6

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.

Namangan viloyati, jahonning 72 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasida (32,2 %), Xitoy Xalq Respublikasida (26,0 %), Qozog‘istonda (6,2 %), Hindistonda (6,5 %), Turkiyada (5,2 %), Germaniya (3,1 %) va Belarusiya (2,7 %) qayd etilgan.

Shuningdek, qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko‘rish mumkin.

2025- yil yanvar- sentabr oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida katta ulushga ega bo‘lgan davlatlar

Davlatlar nomi	Viloyat tovar aylanmasida ulushi % da	2024- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan % da
Rossiya Federatsiyasi	32,2	120,3
Xitoy	26,0	143,7
Qozog‘iston	6,2	147,5
Hindiston	6,5	161,0
Turkiya	5,2	120,9
Germaniya	3,1	113,0
Qirg‘iziston	2,8	56,3
Belarus	2,7	142,6
Koreya Respublikasi	1,3	101,4
Pokiston	1,7	2,3 m.
Indoneziya	0,9	2,0 m.
Tojikiston	1,3	176,9
Eron, Islom Respublikasi	1,0	176,1
Italiya	0,7	110,4
Turkmaniston	0,8	135,6

jadval davomi

Davlatlar nomi	Viloyat tovar aylanmasida ulushi % da	2024- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan % da
Malayziya	0,9	2,1 m.
Afg'oniston	0,7	196,1
Polsha	0,5	71,6
Ukraina	0,6	114,6
Aqsh	0,3	3,3 m.
Litva	0,3	2,2 m.
Ozərbayjon	0,3	92,0

2025- yil yanvar-sentabr oylarida jami eksport tovarlari
hajmida tarmoqlarning ulushi (% da)

■ Oziq-ovqat va tirik hayvonlar

■ Oziq-ovqat bo'lmagan xom ashyo, yoqilg'idan tashqari

■ Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar


■ Ishlab chiqarilgan mahsulotlar

■ Mashina va transport uskunalari

■ Har xil tayyor mahsulotlar

■ Xizmatlar

■ Boshqalar




2025-yil yanvar-sentabr oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, amalga oshirilgan eksportning umumiy hajmiga nisbatan sanoat ulushi 44,8 %, har xil tayyor mahsulotlar eksportining ulushi 24,6 % ni hamda oziq ovqat va tirik hayvonlar eksportining ulushi esa 21,6 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar eksporti hajmi 5,0 mln AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 1,0 % ni tashkil etib, o'tgan-yilning mos davriga nisbatan 122,5 % ga ko'payganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari, turizm xizmatlari, moliyaviy xizmatlardan iborat.

2025- yil yanvar-sentabr oylarida jami eksport tovarlari
hajmi shahar va tumanlar kesmida
(ming AQSH dollari)

	yanvar-sentabr		O'sish sur'ati, % da
	2024- yil	2025- yil	
Viloyat jami	440 650,7	491 744,9	111,6
Namangan sh.	132 997,5	126 433,4	95,1
Mingbuloq	3 553,7	11 711,5	3,3 m.
Kosonsoy	61 869,8	70 873,1	114,6
Namangan t.	17 190,5	18 711,4	108,8
Norin	19 097,5	5 093,3	26,7
Pop	39 810,2	9 825,5	24,7
To'raqo'rg'on	71 314,5	114 409,6	160,4
Uychi	35 446,0	37 877,9	106,9
Uchqo'rg'on	14 153,1	32 111,2	2,3 m.
Chortoq	3 733,9	4 105,2	109,9
Chust	27 571,2	40 785,0	147,9
Yangiqo'rg'on	11 891,6	17 892,3	150,5

2025-yil yanvar-sentabr oylarida viloyat eksportida asosiy hamkor davlatlarning ulushi, (% da)




- Rossiya Federatsiyasi
- Boshqa davlatlar
- Qozog'iston
- Turkiya
- Pokiston
- Xitoy
- Qirg'iziston
- Germaniya

Viloyatdan eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Turkiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Pokiston, Germaniya va Qirg'iziston davlatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 85,7 % tashkil qiladi.

Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Turkiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Pokiston, Germaniya va Qirg'iziston davlatlariga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan yengil sanoat mahsulotlari oziq-ovqat mahsulotlari guruhlaridan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin.


2025- yil yanvar-sentabr oylarida jami import tovarlari
hajmi shahar va tumanlar kesmda

(ming AQSH dollari)

	yanvar–sentabr		O‘shish sur‘ati, %da
	2024- yil	2025- yil	
Viloyat jami	524 200,2	739 157,9	141,0
Namangan sh.	278 394,3	273 894,9	98,4
Mingbuloq	3 260,3	9 422,4	2,9 m.
Kosonsoy	18 362,6	30 500,2	166,1
Namangan t.	23 647,6	17 499,0	74,0
Norin	21 878,1	22 308,7	102,0
Pop	12 489,0	103 098,3	8,3 m.
To‘rao‘rg‘on	37 355,3	52 128,1	139,5
Uychi	26 382,1	31 650,6	120,0
Uchqo‘rg‘on	4 783,2	7 664,8	160,2
Chortoq	42 542,1	104 731,7	2,5 m.
Chust	43 260,3	76 900,9	177,8
Yangiqo‘rg‘on	11 845,3	8 842,9	74,7

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko‘rsatdiki, 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida amalga oshirilgan importning umumiy hajmiga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlari importining ulushi 28,0 % ni, mashina va uskunalar importining ulushi 26,4 % ni, sanoat mahsulotlari importining ulushi 21,2 % ni hamda kimyoviy moddalar va shunga o‘xshash mahsulotlar importining ulushi esa 6,5 % ni tashkil etdi.

2025- yil yanvar-sentabr oylarida jami import tovarlari hajmida tarmoqlarning ulushi (% da)



2025- yil yanvar-sentabr oylarida viloyat importida asosiy hamkor davlatlar ulishi

2025- yil yanvar-sentabr oylarida viloyatga 62 ta xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shundan 7 ta eng yirik bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Hindiston, Qozog'iston, Turkiya, Germaniya va Belarus kabi hamkor davlatlarning jami import hajmi 611,8 mln AQSH dollarga teng. Bu esa umumiy import hajmining 82,8 % ni tashkil qiladi.

